

The Problem of Child Labor in the Works of G‘afur G‘ulom

Tashkent state university of law Student of 3rd course

Abdixoliqova Ruxshona

abdixoliqovaruxshona@gmail.com

Annotation. This article analyzes the problem of child labor in the works of G‘afur G‘ulom from both artistic and social perspectives. In particular, the story Shum bola and other works by the writer reveal how children are forced to work at an early age due to difficult social conditions, are deprived of educational opportunities, and face poverty and social inequality. The article examines the causes of child labor, its impact on children’s fate and future, and its connection with illiteracy and poverty through comparative analysis. The issue of child labor is also compared with the modern era and legal norms, and conclusions are drawn about protecting children’s rights and ensuring their right to education. The article argues that child labor is a social problem that negatively affects the development of society and that education and enlightenment are important factors in overcoming it.

Keywords: child labor, International Labour Organization, children’s social and economic rights.

Bolalar mehnati muammosi G‘afur G‘ulom asarlarida

Abdixoliqova Ruxshona

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

abdixoliqovaruxshona@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada G‘afur G‘ulom asarlarida bolalar mehnati muammosi badiiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Shum bola qissasi hamda yozuvchining boshqa asarlarida bolalarning og‘ir ijtimoiy sharoit sabab erta mehnat qilishga majbur bo‘lishi, ta‘lim olish imkoniyatidan mahrum qolishi, kambag‘allik va ijtimoiy tengsizlik muammolari ochib beriladi. Maqolada bolalar mehnatining sabablari,

uning bolalar taqdiri va kelajagiga ta'siri, savodsizlik va kambag'allik bilan bog'liqligi qiyosiy tahlil asosida yoritiladi. Shuningdek, bolalar mehnati muammosi zamonaviy davr va huquqiy me'yorlar bilan solishtirilib, bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning ta'lim olish huquqini ta'minlash masalalari haqida xulosalar beriladi. Maqolada bolalar mehnati jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy muammo ekani va uni bartaraf etishda ta'lim va ma'rifat muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bolalar mehnati, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, bolalar ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari

O'zbek adabiyotida bolalar hayoti, ularning taqdiri, tarbiyasi va jamiyatdagi o'rni masalasi ko'plab yozuvchilar ijodida muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, G'afur G'ulom ijodida bolalar taqdiri, yetimlik, qashshoqlik, savodsizlik va bolalar mehnati muammolari alohida o'rin egallaydi. Yozuvchi bolalar hayotini shunchaki tasvirlabgina qolmay, balki ularning og'ir hayoti orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlik muammolarini ochib beradi. Bolalar mehnati masalasi bugungi kunda ham dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda millionlab bolalar og'ir mehnat bilan shug'ullanishga majbur. Bu esa ularning ta'lim olishiga, sog'lig'iga va normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. G'afur G'ulom asarlarida tasvirlangan bolalar hayoti ham aynan shu muammoning tarixiy ildizlarini ko'rsatib beradi. Yozuvchi o'z asarlari orqali bolalar mehnati muammosini badiiy tasvir orqali juda ta'sirli ochib bergan.

G'afur G'ulom asarlarida bolalar mehnati muammosi eng yorqin tasvirlangan asarlardan biri -Shum bola qissasidir. Asarda bosh qahramon Qoravoyning bolaligi o'yin-kulgi, maktab va tarbiya bilan emas, balki tirikchilik, ochlik va turli yumushlar bilan o'tadi. U turli odamlarning xizmatini qiladi, bozorda ishlaydi, yuk tashiydi, mayda-chuyda ishlar bilan shug'ullanadi. Bu esa o'sha davrda ko'plab bolalar majburiy mehnat qilganini ko'rsatadi. Asarda bolalar mehnati ochiq tanqid qilinmaydi, lekin

voqealar orqali muammo juda aniq ko'rsatiladi. Qoravoyning o'qish o'rniga ishlab yurishi, kattalar tomonidan aldangani, haqining berilmagani bolalarning huquqlari himoya qilinmagan jamiyatni ko'rsatadi. Bu orqali yozuvchi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni ochib beradi. Boy oilalarning bolalari o'qiydi, kambag'al bolalar esa ishlaydi. Natijada savodsizlik va kambag'allik avloddan avlodga o'tib boradi.

Bolalar mehnati muammosi yozuvchining boshqa asarlarida ham uchraydi. Masalan, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida bola o'g'rilik qiladi, lekin u jinoyatchi sifatida emas, balki ochlik va muhtojlik qurboni sifatida tasvirlanadi. Bola o'g'rilikni yomon ko'rgani uchun emas, balki yashash uchun qiladi. Bu esa bolalar jinoyatchiligining ham asosiy sabablaridan biri kambag'allik va majburiy mehnat ekanini ko'rsatadi.

Bolalar mehnati muammosini tarixiy va zamonaviy davr bilan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, o'tmishda bolalar asosan qashshoqlik sabab ishlagan bo'lsa, bugungi kunda ham ayrim hududlarda bolalar oilasiga yordam berish uchun ishlashga majbur bo'lmoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 150 milliondan ortiq bolalar mehnat bilan shug'ullanadi. Ularning ko'pchiligi ta'lim olish o'rniga ishlashga majbur.¹ Bugungi huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, bolalar mehnati qat'iy cheklangan. Bola eng avvalo ta'lim olishi, sog'lom ulg'ayishi va erkin rivojlanishi kerak. Ko'plab davlatlarda bolalarni og'ir mehnatga jalb qilish qonun bilan taqiqlangan. Bolalar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarda ham har bir bolaning ta'lim olish, dam olish va bolalikni boshdan kechirish huquqi borligi belgilangan. Xususan, O'zbekistonda 1994-yilda xalqaro ratifikatsiya qilingan konvensiyalardan, "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" bolalar huquqlarini ta'minlanishida alohida o'rin egallaydi.² Shu asnoda Konstitutsiyaning 77-78-moddalari bolalar huquqlarini aqlan,

¹ <https://www.ilo.org/>

² <https://lex.uz/docs/-2595913>

ma'nan kamol toptirish ularni sog'lom muhitda ota-onalar bilan ulg'ayishiga yo'l ochadi.³ "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi" qonunning qabul qilinishi unda bolalarga tegishli bo'lgan barcha asosiy huquqlar: ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, yashash huquqi va ularga tegishli bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar har biri moddama-modda belgilab qo'yilishi ham ham bola huquqlarini yuqori pog'onaga ko'tarilganli va qadr-qimmatining oshganidan dalolat beriladi.

G'afur G'ulom asarlarida tasvirlangan bolalar esa bu huquqlardan deyarli foydalanmagan. Ular bolaligini yashamagan, erta ulg'ayishga majbur bo'lgan bolalar sifatida tasvirlanadi. Bu esa yozuvchining asarlari nafaqat badiiy, balki ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Yozuvchi bolalar mehnatini bevosita qoralamaydi, lekin bola taqdiri orqali jamiyatni tanqid qiladi. U go'yoki shuni aytmoqchi: agar jamiyat bolani o'qitmasa, uni ishlashga majbur qilsa, kelajakda ham savodsizlik va kambag'allik davom etaveradi. Demak, bolaga eng katta yordam uni ishlatish emas, uni o'qitishdir.

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulom asarlarida bolalar mehnati muammosi juda real va hayotiy tasvirlangan. Yozuvchi bolalar hayoti orqali jamiyatdagi kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, savodsizlik va adolatsizlik muammolarini ochib beradi. Ayniqsa, Shum bola qissasida bolalarning o'qish o'rniga ishlashga majbur bo'lishi o'sha davr jamiyatining og'riqli muammolaridan biri sifatida tasvirlangan. Asarlardan shunday xulosa qilish mumkin, bolalar mehnati jamiyatdagi kambag'allik va savodsizlikning asosiy sabablaridan biridir. Bola ishlashi emas, o'qishi kerak. Chunki bugun ishlagan bola ertaga ham kambag'al bo'lib qolishi mumkin, o'qigan bola esa jamiyatni o'zgartirishi mumkin.

Demak, G'afur G'ulom asarlari bizga bir muhim haqiqatni anglatadi: bolaga beriladigan eng katta yordam - bu mehnat emas, ta'limdir. Bolalar mehnatini

³ <https://lex.uz/docs/-6445145>

kamaytirish, ularni ta'lim bilan ta'minlash va huquqlarini himoya qilish jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biridir. Ma'rifatli va adolatli jamiyat esa bolalar ishlaydigan emas, bolalar o'qiydigan jamiyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.<https://gafur-gulom-library-one.netlify.app/>
- 2.<https://lex.uz/>
- 3.<https://www.ilo.org/>